

1-dars. O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalarini kengaytirish;
- davlat madhiyasini ijro etish misolida musiqa uyg'otadigan tuyg'ular haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- o'quvchialarda vokal ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilarda O'zbekiston madhiyasining to'g'ri ijro etilishi haqida tasavvur hosil bo'ladi;
- o'quvchilar O'zbekiston davlat madhiyasi kuylayotganda paydo bo'ladigan tuyg'ularni tushunadilar;
- o'quvchilarning O'zbekiston madhiyasini ijro etishda vokal ko'nikmalari shakllanadi.

Zaruriy vositalar: darslik, gadget.

Darsning texnologik xaritasi

Tashkiliy jarayon (5 minut).

O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, davomat tekshiriladi.

Kirish (10 minut).

Bilimlarni mustahkamlash. Dars mavzusiga kirish. Mavzuni e'lon qilish.

Keling, birinchi sinfda nimalar bilan tanishganingizni eslab olamiz.

Bolalar o'qituvchi bilan doskada "Biz musiqa haqida nimalarni bilamiz?" mavzusida klaster tuzadilar».

O'qituvchiga yordam:

Musiqa haqida nimalarni bilamiz

Qanday tovushlar bor?	Musiqi kasblari	Qanday musiqalar bor?
-----------------------	-----------------	-----------------------

Shovqinli	Bastakor	Baland (forte).			
Musiqiy	Xonanda	Past (piano).			
Past	Musiqachi	Sokin			
O'rtacha	Shoir	Quvnoq			
Yuqori	Raqqos(a)	Tez			
Biz qanday musiqa asboblarini bilamiz?					
(o'quvchilar eslab qolgan barcha nomlarni yozadi).					
shovqinli	torli	puflama	klaviatura	zarbli	ovozli

O'qituvchi birinchi dars mavzusi an'anaga ko'ra "O'zbekiston madhiyasi" ekanligini aytadi.

Asosiy qism (20 minut).

Darslik bilan ishlash.

O'qituvchi o'quvchilardan quyidagilarni so'raydi:

Davlat madhiyasi ijro etilganda o'zini qanday tutish kerakligini eslang.

O'zbekiston madhiyasi muallifi va bastakorini ayting.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi nechanchi yilda tasdiqlanganligini kim ayta oladi?

Amaliy ish.

Davlat madhiyasini tinglash.

Tinglagandan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazadi va savollar beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar, taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar.

1. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi nimaga bag'ishlangan?
2. Madhiyadagi qaysi so'zlarni yoqtirasiz? Nima uchun?
3. Madhiya yangraganda o'zingizni qanday his qilasiz? (G'urur, vatanga sadoqat).
4. Nima uchun davlat madhiyasi tik turgan holda ijro etilishi kerak deb o'ylaysiz? (Asosiy milliy qo'shiqqa hurmat).
5. O'zbekiston madhiyasi necha misradan iborat??
6. Unda naqorat necha marta takrorlanadi??

O'qituvchi o'quvchilardan o'tgan yili o'rgangan qo'shiqlarini esga olishlarini so'raydi. O'qituvchi "Qo'shiqni top" o'yinini o'tkazadi. O'quvchilar jamoalarga bo'linadilar. O'qituvchi o'ziga tanish qo'shiqning ohangini cholg'u asboblarda chaladi. Qo'shiqni birinchi bo'lib taxmin qilgan jamoa ball oladi.

Yakuniy xulosa, refleksiya (5 minut)

Bugun biz o'tgan o'quv yilida musiqa haqida nimani o'rganganimizni esladik. Oldinda bizni juda ko'p qiziqarli darslar kutib turibdi. Bu yil biz juda ko'p yaxshi musiqalarni tinglaymiz, musiqiy ifoda vositalarini farqlashni o'rganamiz, buyuk bastakorlar haqida bilib olamiz va ko'plab ajoyib qo'shiqlarni kuylaymiz va, albatta, musiqiy o'yinlar o'ynaymiz. Musiqa olamiga qiziqarli sayohatga chiqishga tayyormisiz?

Dars oxirida o'qituvchi o'quvchilarni "Qo'shiqnini top" o'yinidan o'zlariga yoqqanini tanlab, bir nechta satrlarni kuylash orqali ularning yutuqlarini baholashni taklif qiladi.

2-dars. Vatanjonim- Vatanim!

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarning Vatan haqidagi tushunchalarini, Vatanga bo'lgan tuyg'ularini kengaytirish;
- o'quvchilarda vokal va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ta'lim natijalari:

- o'quvchilar qo'shiqlarni to'g'ri ijro etish haqidagi tushunchalarini kengaytiradilar;
- o'quvchilar vatan haqidagi qo'shiqlar kuylash orqali uyg'ongan tuyg'ularni anglaydilar;
- o'quvchilarda vokal ijro mahorati rivojlanadi.

Zaruriy vositalar: darslik, gadjet.

Darsning texnologik xarитаси.

Tashkiliy jarayon (5 minut).

O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, davomat tekshiriladi.

Kirish (10 minut).

Bilimlarni mustahkamlash. Dars mavzusiga kirish. Mavzuni e'lon qilish.